



## XALQ DEPUTATLARI SHIRIN SHAHAR KENGASHI Q A R O R I

2022 - yil 27 - yanvar

VI-41-10-9-131-K/22

Shirin shahar hokimligi

### **Shirin shahrida 2021-yil “Ochiq byudjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirilishi haqidagi hisoboti va 2022-yil “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga mablag‘lar ajratilishi to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-sentabrdagi “Ochiq byudjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5250-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 94 va 126-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 14-yanvardagi 03/03-05-32/100-sonli xatini ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24 va 25-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Shirin shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Shirin shahrida 2021-yilda jamoatchilik fikri asosida bildirilgan takliflarga asosan **“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”**dan ajratilgan mablag‘lar va ajratilgan mablag‘larni ishlatilishi to‘g‘risidagi moliya bo‘limining hisoboti ilovalarga asosan tasdiqlansin.

2. Shahar mahalliy byudjetining 2022-yilga tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foiz mablag‘lari 1872744.0 ming so‘m va mahalliy byudjetining 2022-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari 134373.3 ming so‘m

tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Shahar mahalliy byudjetining 2022-yilga tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foiz mablag'larini 2.5 foizi 936372.0 ming so'm va mahalliy byudjetining 2022-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag'larini 30 foizi 40312.0 ming so'm mablag'larni jamoatchilik fikri asosida shakllanadigan tadbirlarni moliyalashtirish maqsadida shahar hokimligi qoshida ochilgan **“Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi”**ga o'tkazilsin.

Shirin shahrida 2021-yilda o'tkazilgan tashabbusli byudjet jarayoni yakunlariga ko'ra ishlarni amalga oshirish uchun hisobvaraqlarga ajratilgan mablag'larning tadbirlar to'liq amalga oshirilishi natijasida bo'shab qolgan (iqtisod qilingan) 15331.4 ming so'm mablag'lari jamg'armaga o'tkazilsin.

Shahar hokimligi qoshida ochilgan **“Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi”** dagi qoldiq mablag'lari hamda yuqorida ko'rsatilgan mablag'lar jamg'armaga o'tkazilishi munosabati bilan jamg'armaning umumiy mablag'lar miqdori 2022-yilning fevral oyiga 1607793.4 ming so'mga belgilanganligi tasdiqlansin.

4. Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash hamda ularni shahar byudjetlarining mablag'lari hisobdan moliyalashtirilishi mezonlariga mosligi monitoringini olib borish bo'yicha ishchi komissiyasi va shahar hokimligi matbuot kotibi (Sh. Abduqunduzov) bilan birgalikda ajratilgan mablag'lar doirasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni shahar hokimligining veb-saytiga va “Ochiq byudjet” axborot portaliga joylashtirilishini ta'minlasin.

5. Shahar moliya bo'limi T. Kuldashev mahalliy byudjet parametrlariga tegishli o'zgartirish kiritish, shahar bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi L. Zaxidova ajratilgan mablag'larni belgilangan tartibda kassa xarajatini amalga oshirilishini ta'minlash, shahar hokimligi bosh hisobchisi Sh. Abduraxmonova ajratilgan mablag'larni **“Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi”** ga o'tkazishni ta'minlasin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiya raisi N. Xo'janov hamda shahar hokimining birinchi o'rinbosari M. Kuvandikov zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi**



**S.Sultonov**

Халқ депутатлари Ширин шаҳар Кенгашининг  
2022 йил 27 январдаги  
VI-41-10-9-131-К/22-сон қарорига  
1-илова

**Tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo'yicha****MA'LUMOT**

Shirin shahar

01.01.2022 yil

**1- jadval**

t/r	Ko'rsatkich nomi	Summa (ming so'm)
1	<b>Yil boshiga qoldiq</b>	<b>0</b>
2	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga o'tkazilgan mablag'lar	1580778
3	Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan(g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar	965000
3.1.	Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlar uchun to'langan mablag'lar	939668,6
3.2.	Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga to'lab berilmagan qoldiq mablag'lar	10000
4	<b>Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidagi qoldiq mablag'lar</b>	<b>631109,4</b>

2- jadval

T/r	Bajarilgan tadbirlar nomi	Moliyalash-tirilgan takliflar soni	ko'rsatkichlar		
			o'lchov birligi	miqdori	sarflangan mablag'lar
1	Hududiy ichki yo'llar	1	umumiy uzunligi	325	80000
2	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
3	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
4	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
5	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	6	soni	6	339958,6
6	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash		umumiy uzunligi		
7	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish	4	chiroqlar soni	81	365000
8	Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish		tadbirlar soni		
9	Boshqa tadbirlar	5	soni	10	154710
<b>Jami</b>		<b>16</b>	<b>X</b>	<b>X</b>	<b>939668,6</b>

**Izoh:**

\*Ushbu qatorda mazkur ma'lumotning 1-ilovasidagi fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga haqiqatda o'tkazilgan mablag'lar ustunining jami ajratiladigan mablag'lar qatoridagi mablag'lar aks ettiriladi.

\*\*Ushbu qatorda mazkur ma'lumotning 2- ilovasidagi ajratilgan mablag'lar ustunining jami qatoridagi mablag'lar aks ettiriladi.

Халқ депутатлари Ширин шаҳар Кенгашининг  
2022 йил 27 январдаги  
VI-41-10-9-131-К/22-сон қарорига  
2-илова

## Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirishi yuzasidan

### MA'LUMOT

Shirin shahar

01.01.2022 yil

T/r	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga yo'naltirilishi lozim bo'lgan mablag'lar				Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga haqiqatda o'tkazilgan mablag'lar	Farqi	Izoh
		1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak			
1	Shirin shahar byudjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foiz qismi miqdorida ajratiladigan mablag'lar					0	0	
2	Shirin shahar budjetining qo'shimcha manbalarining 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	15055	10629	54636	80458	160778	0	

2.1.		erkin qoldiq mablag'lari	15055				15055	0	
2.2.		daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi		10629	54636	80458	145723	0	
2.3.	shu jumladan	davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar					0	0	
2.4.		elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan mablag'lar					0	0	
2.5.		byudjetdan ajratiladigan mablag'lar kamaytirilishi natijasida bo'shab qolgan mablag'lar					0	0	
3		O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22 -sentabrdagi "Ochiq byudjet" axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5250-sonli qaroriga asosan ajratilgan mablag'lar			1420000		1420000	0	
4		<b>Jami ajratilgan mablag'lar</b>	<b>15055</b>	<b>10629</b>	<b>1474636</b>	<b>80458</b>	<b>1580778</b>	<b>0</b>	

Халқ депутатлари Ширин шаҳар Кенгашининг  
2022 йил 27 январдаги  
VI-41-10-9-131-К/22-сон қарорига  
3-илова

**Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan**

**MA'LUMOT**

Shirin shahar

01.01.2022 yil

T/r	Tadbirning xos raqami(ID)	Jami to'plangan ovozlar soni	shundan			Tadbirning qisqacha mazmuni(sohasi)	Tadbirning moliyalashtirilishi (ming so'm)					
			Onlayn ovozlar	oflayn ovozlar	SMS orqali		Tadbirni moliyalashtirish uchun ochilgan hisobvara	Tadbirning fuqaro tomonidan kiritilgan dastlabki qiymati	Tadbirni amalga oshirish qiymati	Ajratilgan mablag'lar	Bajarilgan ishlar uchun to'lab berilgan mablag'lar	Qoldiq mablag'lar
1	1310300003	113	1		112	Do'stlik mahalla ko'p qavatli uy oldidagi yo'llarni ta'mirlash	401722860244107065100110003	150000	80000	80000	80000	0
2	1310300014	163	3		160	Amir Temur mahalla ko'p qavatli uy oldiga sport o'yingohi qurish	401722860244107065100110002	20000	19940	20000	19940	60
3	1310300015	24			24	Nurobod MFY Navro'z ko'chasiga yoritish chiroqlari o'rnatish	401722860244107064100110001	2000	50000	50000	50000	0



4	1310300023	2		2	Barkamol avlod bolalar maktabini hojatxonasini ta'mirlash xarajatlari	401722860244107096100075002	150000	14500	15000	14500	500
5	1310300025	91		91	Bunyodkor mahalla ko'p qavatli uylar oldiga shaxmat va shashka o'ynash uchun shipon qurish	401722860244107065100110004	25000	24930	25000	24930	70
6	1310300071	127	60	67	Shirin shahar Axborot-kutubxona markaziga kitob sotib olish	401722860244107082102134001	100000	30000	30000	30000	0
7	1310300044	17	2	15	Ibn Sino ko'chasiga ko'cha chirog'ini o'rnatish	401722860244107064100110002	10000	0	10000	0	10000
8	1310300082	12		12	Bunyodkor mahalla asosiy ko'chasini yoritish chiroqlarini ta'mirlash	401722860244107064100110003	15000	15000	15000	15000	0
9	1310300096	93	1	92	Bolalar-o'smirlar sport maktabiga sport jihozlari sotib olish	401722860244107083610245001	100000	77643,6	80000	77643,6	2356,4
10	1310300097	2		2	Bolalar-o'smirlar sport maktabini binosini ta'mirlash	401722860244107083610245003	250000	79800	80000	79800	200
11	1310300043	123	3	120	Madaniyat bo'limini musiqa va cholg'u asboblari bilan ta'minlash	401722860244107082310056001	150000	69951	70000	69951	49
12	1310300013	24	1	23	Amir Temur mahalla ko'p qavatli uy oldiga zamonaviy o'yingoh qurish	401722860244107065100110005	20000	19935	20000	19935	65

13	1310300027	23			23	Farxod mahalla Barqaror ko'chasiga elektr energiya tortish uchun betonli stolba o'rnatish, ko'cha chiroqlari o'rnatish, asfal yotqizish	401722860244107064100110004	300000	300000	300000	300000	0
14	1310300031	6	1		5	Amir Temur mahalla ko'p qavatli uy oldiga tandirxona qurish	401722860244107065100110006	10000	9965	10000	9965	35
15	1310300022	72	4		68	Barkamol avlod bolalar maktabi binosini ta'mirlash xarajatlari	401722860244107096100075001	200000	68063,9	80000	68063,9	11936,1
16	1310300100	480	45		435	Mahalla nomlari yozilgan stello o'rnatish	401722860244107065100110001	85000	79940	80000	79940	60
<b>Jami:</b>								<b>1587000</b>	<b>939668,6</b>	<b>965000</b>	<b>939668,6</b>	<b>25331,4</b>

**izoh:**

\* Tadbirni amalga oshirish qiymati ustunida loyiha-smeta xujjatlariga asosan pudratchi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomada tadbirni amalga oshirish uchun nazarda tutilgan qiymat aks ettiriladi.